

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA SOLIQ IMTIYOZLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17371032>

Turdaliyeva Gulasalxon Abdusalom qizi

*Qo'shtepa tumani 19-maktab Tarix fani o'qituvchisi, Farg'ona davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
gulasalturdaliyeva@gmail.com*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar davrida payg'ambar avlodlari, sayyidlar, ulomolar, qo'shin safida yaxshi xizmat qilgan askarlarga, qurg'oqchilik yillarida va biror-bir voqea munosabati bilan raiyatga soliq imtiyozlari berilganligi haqidagi ma'lumotlar ilmiy adabiyotlar asosida qiyosiy tahlil qilindi.

Kalit so'zlar

sayyidlar, xo'ja, qozi, yorliq, ehson, tamg'a, xiroj, mol

Аннотация

В данной статье рассматривается пророк времен правления Амира Темура и Тимуридов. На основе научной литературы был проведен сравнительный анализ информации о налоговых льготах, предоставленных потомкам, сейидам, ученым, воинам, отличившимся в армии, а также народу в засушливые годы и в связи с определенными событиями.

Ключевые слова

сейиды, ходжа, кази, этикетка, пожертвование, марка, налог, имущество.

Annotation

This article discusses the prophet during the reign Amir Temur and the Timurids information on tax exemptions granted to descendants, sayyids, scholars, soldiers who served well in the army and to the people during drought years and in connection with certain events was analyzed comparatively based on scientific literature.

Keywords

sayyids, khoja, qazi, label, donation, stamp, tax, property

Kirish: Amir Temur va temuriylar davrida payg'ambar avlodlari, sayidlar, ulomolar, yaxshi qo'shin safida yaxshi xizmat qilgan askarlarga, qurg'oqchilik yillarida va biror-bir voqea munosabati bilan aholiga soliq imtiyozlari berilgan. Bu imtiyozlar bazan butun umrga, bazan bir necha yil muddatga beriladi. Imtiyozlar

merosiy bo'lmaganidan ayrim shahslarni faqat o'ziga berilgan, u vafot etganidan keyin bu imtiyozlar bekor qilingan. Xojalar, sayidlar va ularning avlodlariga berilgan soliq imtiyozlari ularning oila-a'zolariga ham takror berilganligi haqidagi ma'lumotlar ham berib boriladi.

Yuqoridagi ma'lumotlar quyidagi ilmiy adabiyotlarda qayd qilib o'tiladi: Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi", Ibn Arabshohning "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur", Davlatshoh Samarqandiynig "Tazkirat ush-shuaro", Poyon Ravshanovning "Shahrisabz tarixi", "Qashqadaryo tarixi", Temuriylar saroyiga elchi bo'lib kelgan Ruyi Gonzales Klavixoning "Esdaliklar" nomli kitoblari unga misol bo'laoladi.

Asosiy qism: Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" nomli kitobida temuriylar davrida tarxon yorlig'ini olgan kishilarga berilgan imtiyozlar haqida so'z boradi, unda aytilishicha: "Tarxon shunday odamki, - barcha jarimalardan ozod va erkin, qay lashkarda bo'lmasin, qanday o'ljani qo'lga kiritmasin, hech kim undan bir narsa ola olmaydi, to'qqiz bor ulardan gunoh sodir bo'lganida ham biror kishi unga jazo beraolmaydi" deb yozilgan edi. Amir Temur va temuriylar davrida tarxonlik zodagonlar toifasini emas, balki barcha soliq va yig'implardan ozod qilish imtiyoz ekanligini aytib o'tiladi.

Amir Temur tomonidan payg'ambar avlodlari butunlay yoki qisman soliqlardan ozod qilingan. Temuriylar davrida payg'ambar avlodlari sayyidlar va din peshvolariga alohida hurmat va e'tibor ko'rsatilgan. Ular ayrim soliq va to'lovlardan butunlay yoki qisman ozod etilgan. Tarixiy adabiyotlarda keltirilishicha Abu Muslim va uning avlodlari, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Xo'ja Ahror Valiy kabi din peshvolariga berilgan soliq imtiyozlari misol bo'laoladi. Ularni barcha soliq va to'lovlardan ozod qilganligi tarixiy manbalarda qayd qilingan. Sohibqiron va uning avlodlarini sayidlar va din olimlariga berilgan soliq imtiyozlari bir nechta ilmiy adabiyotlarda berib o'tilgan. Bunga misol tariqasida "Amir Temur turkiy yorlig'i" nomli risolada Abu Muslimning⁶⁰ Xorazmda yashagan avlodlariga Amir Temur tomonidan berilgan yorliqda ularni barcha to'lovlardan ozod qilganligi qayd qilinadi. Yorliqda yozilishicha Abu Muslim va uning avlodlari ya'ni sayyidlarga mol-mulk, yer-suv kabi boyliklarning mavjudligi "tamom olig'dor⁶¹ va jami tahsildorlar⁶² .. olarga hech vajhdin sababi tasdi va ozor bermasinlar" deb qayd qilinadi. Yuqoridagi yozuvlarda ko'rinib turibdiki sayyidlarning barcha boyliklari ushbu lavozimdagi

⁶⁰ Abu Muslim – Abd ar-Rohman ibn Muslim Shanfir-ruz al-Marvaziy al-Xurosoniy(718-755). Umaviylarga qarshi Movarounnahrda ko'tarilgan qo'zg'alon rahbari

⁶¹ Olig'dor- raiyatdan soliq to'plovchi amaldor

⁶² Tahsildor- fiqh va hadis bilan shug'ullanuvchi amaldor. Soliq to'plovchi

amaldorlarning xizmat vazifasiga kirgan barcha mulkiy yig'inlardan ozod qilingan.

Amir Temur va Temuriylar davrida Xoja Ahror Valiy va uning avlodlariga berilgan soliq imtiyozlar Kattayev Kning Xoja Ahror Vali va Mirzo Ulug'bek muommolari talqini, Elyor Karimov. Xoja Ahror (hayoti va faoliyati), Poyon Ravshanovning "Qashqadaryo tarixi" ilmiy adabiyotlarda Xoja Ahror Vali va uning avlodlariga berilgan imtiyozlar haqida manbalar qayd qilib o'tiladi. Manbalarda qayd etilishicha Xoja Ahror o'ziga tegishli bo'lgan yerlardan yiliga 80 ming botmon g'allani ushr solig'i sifatida davlatga to'laganligi, uning mulklari Abu Said mirzo davrida Toshkand, Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlari bo'ylab keng yerlarga egalik qiladi va uning siyosiy nufuzi juda oshib ketadi. Xoja Ahrorning ekin maydonlarida ishlaydigan xo'kizlarining soni 3000 juft xo'kiz qo'shilgan qo'shlar ishlaganligi, ekin maydonlarining har qaysinisidan 10 mingdan 40 ming botmongacha g'alla olinganligi qayd etiladi. Asarda aytilishicha, Xoja Ahrorning Qashqadaryo vohasidagi yerlarini 28 ming tanobni tashkil etgan. O'zining mol-mulklaridan kambag'allarga hayru-ehsonlar berib turishi, uni xalq o'rtasida obro'sini oshib ketishiga sabab bo'lgan. Ochil Bo'riyev va Jamshid Bo'riyevlar tomonidan yozilgan "Sohibqiron Amir Temur davri qadriyatlari etnotarixiy lavhalarda" deb nomlangan monografiyada ham sohibqiron tomonidan din olimlari, sayyidlarga berilgan soliq imtiyozlari haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Monografiyada yozilishicha Termiz va Xorazm hududida yashagan sayyidlar boshqa hududlarda yashagan sayidlarga nisbatan obro' jihatdan kattaroq bo'lganligi, ularga katta katta soliq imtiyozlari berilgani qayd qilib o'tiladi. Xorazmdagi Darxonota deb nomlangan hududda yashovchi sayyidlar to'planib, birga yashaganliklari, yer-suv, tegirmon kabi boyliklarga egalik qilishganliklari qayd qilinadi. Hususan ularga Amir Temur tomonidan berilgan yorliqda yozilishicha sayyidlar barch soliqlardan ozod qilinganliklari, xon ovlari paytida ularga halaqit bermasdan, ov uchun ulardan oziq-ovqat va boshqa to'lovlarni olishmagan. Hattoki xorijiy elchilarga ham sharoit yaratishda sayyidlardan barcha soliqlar va barcha xizmatlardan ozod qilinganlar. Choparlarga ham sharoit yaratish mahalliy aholi zimmasiga yuklatilgan bo'lib, bu jarayonda ham sayyidlardan hech qanday narsa undirib olinmaganligi monografiyada yozib o'tilgan. Amir Temur Turkistonda Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara qurdiradi va bu maqbara faolyati uchun o'sha atrofdagi bir nechta qishloqlarni vaqf qilib beradi. Bu qishloqlar barcha soliq va yig'imlardan ozod qilinadi. Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asarida yozilishicha Amir Temur 1404-yilda Jilon va Dayolama deb atalgan hududlarga kelganida bu yerlarni eng katta sayidi Sayid Rizo Qiyo Amir Temur huzuriga keladi. Bu insonning payg'ambar avlodidan ekanligini sohibqiron

bilib unga ko`p marhamatlar qiladi. Hususan Gilonotddan olinadigan mol-hiroj, Hirot toshida 15 ming man keladigan 10 ming ipak, yetti ming bosh ot, uch ming bosh qoramol miqdorida ehsonni bu sayidga beradi. Bu sayidni Gilonotdagi eng ulug` sayidlardan biri bo`lib ajralib turishini sohibqiron xoxlab unga Sayid Rizo Qiyo va Amir Muhammadlar to`lashi lozim bo`lgan molning yarmini va Gilon podsholari to`lashi lozim bo`lgan qismining uchdan birini bir yo`la va bir qadamda Sayid Rizo Qiyoga in`om qiladi. keyin hukmdor buyruq berdiki soliq yig`uvchi muhossillar bu mablag`ni to`langan deb hisoblashlari, hech bahona bilan uni o`zgartirishlari man qilinadi. Amir Temurning farzandlari ham payg`ambar avlodlari va sayidlarni ham hurmat bilan qaraganlar. Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ash-shuaro" nomli asarida Mironshoh ibn Amir Temurni sahovatpeshaligi haqida ham ma`lumotlar berib o`tgan bo`lib, unda shayx Kamol Xo`jandiyga qilgan ehsoni shayxni qarzdorlik balosidan qutqarib qoladi. Asarda yozilishicha bir kuni shag`zoda shayxni yo`qlab uni ko`rgani keladi, shag`zodaning askarlari shayxning uyiga kirishlari bilan mevali darxtlariga hujum qilib mevalarini yeyishni boshlaydi. Shunda shayx ularga qarab buni mevalarini terib qarzlarimdan qutulmoqchi edim deb hitob qiladi. Shag`zoda shayx bilan suhbatda uning ming dinor qarzi bor ekanligini eshitadi va unga xazinadan 10 ming dinor berishga buyruq beradi. Yuqoridagi voqeadan ko`rinib turibdiki shag`zoda Mironshoh ham huddi otasi kabi sayidlarni o`z himoyasiga olganligini bilib olishimiz mumkin.

Xulosa: Amir Temur va Temuriylar davrida payg`abar avlodlari, sayyidlar, xojalarga alohida e`tibor berilganligi, ular egalik qilayotgan yerlardan soliqlar va alohida yig`imlar olinmaganligi yuqoridagi manbalar asosida ko`rishimiz mumkin bo`ladi. Bundan tashqari hukmdor oldidagi alohida xizmatlari uchun sarkardalarga mukofot tariqasida yer-mulklari berilganligi, bunday yerlar soliqlardan ozod qilinganligi ham manbalarda qayd etilganligini bilib olishimiz mumkin bo`ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:

- 1.Mirzo Ulug`bek. To`rt ulus tarixi. T,; "Cho`lpon", 1994, 83-b.
- 2.Sharofiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma, /so`z boshi va izohlar va ko`rsatgichlar mualliflari: Ashraf Ahmadva Haydarbek Bobobekov/ T,; "Fan",1997, 118-b.
- 3.M.Ivanin, Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur, /tarjimon:Akmaljon Mahkamov/ (so`z boshi va muharrir: Yusuf Muzaffar) T,; "Fan", 1994, 161-b.
4. A Muhammadjonov, Temur va temuriylar saltanati. (tarixiy-ocherk), T,;1994, 92-b.

5. Ziyodulla Muqimov. O`zbekiston tarixi va huquqi tarixi. T,, "Adolat", 2003. 150-b.
6. Poyon Ravshanov. Qashqadaryo tarixi/eng qadimgi davrlardan XIX asr II-yarmiga qadar/(taqrizchi:Bo`riboy Ahmedov), T,, "Fan", 1995, 625-b.